YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI BARPO ETISHNING TARIXIY VA MA’NAVIY ASOSLARI

Temirov Ma’murjon Amirqul o‘g‘li
Termiz Davlat Pedagogika insitituti magistranti
temirovmamurjon85@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisda Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi strategik maqsad - Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillari tadqiq etiladi. Tadqiqotda Markaziy Osiyo hududida IX-XII hamda XIV-XVI asrlarda yuz bergan Sharq uyg‘onish davrlarining tarixiy tajribasi zamonaviy taraqqiyot bosqichi bilan qiyosiy tahlil qilingan. Ishning asosiy mazmuni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Yangi O‘zbekiston g‘oyasi, “Ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi va yoshlar siyosatining o‘zaro uzviy bog‘liqligini ochib berishdan iborat. Shuningdek, ajdodlarimizning boy ilmiy merosi va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash orqali jamiyatda yangi bir uyg‘onish davrini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, Musulmon Renessansi, Temuriylar davri, ma’naviy taraqqiyot, yoshlar - kelajak bunyodkori, milliy g‘oya, taraqqiyot strategiyasi, jadidlar merosi, intellektual salohiyat.

Bugungi kunda jahon miqyosida O‘zbekiston haqida so‘z ketganda “Yangi O‘zbekiston” iborasi nafaqat siyosiy termin, balki taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichi ramzi sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu yangilanish jarayonlarining o‘zagi va pirovard maqsadi sifatida Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi ilgari surilgani bejiz emas. Zero, har qanday xalq o‘zining buyuk tarixini, ajdodlari qoldirgan o‘lmas merosni chuqur anglagan holdagina yuksak kelajakni barpo eta

_____ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yilgi Mustaqillik bayrami tantanalarida ta’kidlaganidek, xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda mamlakatimizda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga mustahkam zamin yaratilmoqda. Bu g‘oya o‘z-o‘zidan paydo

bo‘lgani yo‘q, u ming yillik milliy davlatchiligimiz va boy intellektual salohiyatimizning qonuniy davomidir.

Uchinchi Renessans poydevorini qurish jarayoni, avvalo, bizning buyuk tariximizga – IX-XII asrlarda yuz bergan “Birinchi Sharq uyg‘onish davri” hamda XIV-XVI asrlardagi “Ikkinchi Sharq uyg‘onish davri” ga tayanadi. Moziy shohidki, Musulmon Renessansi deb nomlangan birinchi uyg‘onish davrida Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Abu Nasr Forobiy kabi qomusiy olimlarimiz jahon ilm-fani rivojini bir necha asr oldinga chorlab, aniq va tabiiy fanlar tizimini yaratib berishdi. Keyinchalik, Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davrida yuz bergan Ikkinchi Renessans jarayonida esa davlatchilik ma’naviyat va ma’rifat bilan sug‘orildi. Mirzo Ulug‘bekning astronomik jadvallari, Alisher Navoiyning nafaqat turkiy tilda, balki butun insoniyat badiiy tafakkurida inqilob yasagan asarlari, Kamoliddin Behzodning nafis san’ati biz uchun bugun ham yuksak ma’naviy namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Abdulla Oripov aytganidek, Temur tig‘i bilan erishilgan g‘alabalarni Navoiy qalami ma’naviyat xazinasiga aylantirdi.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan 71, 72 va 73-maqsadlar bevosita Uchinchi Renessansning metodologik asoslarini belgilab beradi. Ushbu strategiya doirasida “Ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish, aholi o‘rtasida kitobxonlikni keng yoyish va “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Chunki ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onishsiz iqtisodiy va ijtimoiy yuksalishga erishib bo‘lmaydi. Shuningdek, milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish masalasi ham dolzarb bo‘lib, bunda XX asr boshida yurtimizni jaholat botqog‘idan qutqarishga bel bog‘lagan jadid bobolarimiz – Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori kabi zotlarning ma’rifatparvarlik harakati bugungi islohotlar bilan mantiqan tutashib ketadi. Ular boshlagan, ammo mustamlakachilik davrida qatag‘on etilgan milliy uyg‘onish harakati bugun Yangi O‘zbekistonda o‘zining yangi, yuksak bosqichini topmoqda.

Uchinchi Renessansning asosiy drayveri va bunyodkori bu – intellectual rivojlangan yoshlar avlodidir. 2016-yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi qonun va taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan yoshlar bilan ishlash tizimi aynan shu maqsadga yo‘naltirilgan. Yoshlarimizning zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni egallashi, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlatimizning eng muhim vazifasidir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas, bugungi yoshlarimiz ham kechagi yoshlar emas. Ularning iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish uchun tashkil etilayotgan Prezident maktablari, IT-parklar va xalqaro ilmiy markazlar Uchinchi Renessans binosining g‘ishtlari bo‘lib xizmat qiladi.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi buyuk ulamolarimizning boy diniy-ma’rifiy merosini o‘rganish esa yosh avlodning ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi, ularni yot g‘oyalardan asraydi va “Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili asosida tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish – bu o‘tmishdagi buyuk yutuqlardan ilhomlanib, bugungi kunning zamonaviy imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda xalqimizning farovon kelajagini yaratishdir. Bu jarayonda har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar o‘zini mas’ul deb bilishi, ajdodlar merosiga sodiq qolgan holda jahon tamadduni yutuqlarini egallashi lozim. Yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik va ilm-fan bo‘ladi. Ushbu ulug‘vor yo‘lda amalga oshirilayotgan islohotlar tez orada o‘zining yuksak samarasini berib, mamlakatimizni jahonning eng rivojlangan, ma’rifatli davlatlari qatoriga olib chiqishi shubhasizdir. Zero, maqsadi ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, kelajagi esa nurli bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. - 416 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-avgustdagi Mustaqillikning 29 yilligiga bag‘ishlangan nutqi.
4. Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va sharq mutafakkiri. – T., 1971. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
5. Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
6. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”, Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent-2019, 1-tom.